Muddatli depozit shartnomasi **_____/2026-son** Andijon sh. «___» _____ 2026 yil	**Договор о срочном депозите** **№_____/2026** г. Андижан «___» _____ 2026 г.
Chet el kapitali ishtirokidagi «Hamkorbank» aktsiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda «*Bank*» deb nomlanadi) nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi Boshqaruv Raisi _____, va **«_____** (keyingi o‘rinlarda «*Depozitor*» deb nomlanadi) nomidan _____ yildagi _____ asosida faoliyat yurituvchi _____, ikkinchi tomondan, birgalikda esa *«Tomonlar»* deb yuritiluvchilar ushbu Muddatli depozit shartnomasini *(keyingi o‘rinlarda «**Shartnoma**» deb yuritiladi)* quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:	**Акционерно комерческий банк «Hamkorbank» с участием иностранного капитала** (именуемый в дальнейшем *«Банк»),* в лице Председателя Правления _____, действующего на основании Устава, с одной стороны и **_____»**, (именуемое в дальнейшем *«Депозитор»),* в лице _____, действующего на основании _____ от _____ года, с другой стороны, совместно именуемые *«Стороны»*, заключили настоящий Договор о срочном депозите *(именуемый в дальнейшем «**Договор**»)* нижеследующем:
1. SHARTNOMA PREDMETI 1.1. Depozitor Bankga _____ (yigirma milliard) so‘m miqdoridagi pul mablag‘larini kuyidagi ko‘rsatilgan shartlar asosida Bankdagi tegishli depozit hisobvarag‘iga topshiradi: A. **Depozit nomi: _____;** B. **Depozit turi:** *Muddatli (qo‘shimcha mablag‘ kirim qilish imkoniyati mavjud emas);* C. **Depozit valyutasi:** *So‘m;* D. **Depozitning amal qilish muddati:** *depozitga pul mablag kelib tushgandan _____yilgacha* E. **Depozitning yillik foiz stavkasi:** *yillik _____(_____).* F. **Foizlarni to‘lash:** har oyda*;* G. **Depozitni to‘ldirish imkoniyati:** *yo‘q;* H. **Muddatidan oldin pul mablag‘larini qisman qaytarish imkoniyati:** *yo‘k;* I. **Hisobvaraqdan qisman mablag‘ chiqim qilish imkoniyati:** *yo‘q;* J. **Minimal depozit jalb etiladigan summa:** *500 000 000 (besh yuz million) so‘m;* K. **Depozit muddatidan oldin mijoz talabi bilan qaytarilganda:** *depozit muddatidan oldin chiqim qilinsa, barcha hisoblangan va to‘langan foizlar qayta hisob kitob qilinib asosiy depozit*	**1. ПРЕДМЕТ ДОГОВОРА** 1.1. Вкладчик перечисляет Банку денежные средства в размере _____ (_____) сумов на соответствующий депозитный счет в Банке на условиях, изложенных ниже: A. **Название вклада: _____;** B. **Вид вклада:** *Срочный (дополнительное внесение средств невозможно);* C. **Валюта вклада:** *сум;* D. **Срок действия вклада:** *С даты поступления суммы депозита в Банк до _____ года;* E. **Годовая процентная ставка по вкладу:** *_____% (_____) годовых;* F. **Выплата процентов:** *каждый месяц;* G. **Возможность пополнения вклада:** *нет;* H. **Возможность частичного снятия средств до наступления срока:** *нет;* I. **Возможность частичного снятия средств со счета:** *нет.* J. **Минимальная сумма вклада:** *500 000 000 (пятсот миллионов) сум;* K. **При досрочном возврате вклада по желанию клиента:** *при досрочном изъятии вклада все начисленные и выплаченные проценты пересчитываются и вычитаются из основной*

summasidan ushlab qolinadi. Foydalanilgan davriga foizlar to‘lab berilishi 2.2.6 bandiga asosan amalga oshiriladi;	*суммы вклада. Проценты выплачиваются за период пользования в соответствии с п. 2.2.6;*
L. **Depozit muddatidan oldin Bank tashabbusi bilan qaytarilganda:** *yillik _____% (_____).*	L. **При досрочном возврате вклада по инициативе Банка:** *_____% (_____) годовых.*
1.2. Depozit bo‘yicha foiz to‘lovlari oyma-oy va depozitni qaytarish kunida amalga oshiriladi.	1.2. Выплата процентов по вкладу производится ежемесячно и в день возврата вклада.
2. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI	**2. ОБЯЗАТЕЛЬСТВА СТОРОН**
2.1. **Depozitorning majburiyatlari:**	2.1. **Депозитор обязуется:**
2.1.1. Shartnomani 1.1. bandida ko‘rsatilgan depozit mablag‘ini 5 (Besh) bank ish kunida Bank tomonidan ochilgan **№ 206_____, MFO 00083** muddatli depozit hisob raqamiga mazkur Shartnomada ko‘zda tutilgan shartlarda muddatli depozit sifatida joylashtirish uchun o‘tkazib beradi.	2.1.1. В течение 5 (Пяти) банковских дней со дня подписания Сторонами настоящего Договора перечислить сумму депозита, указанную в п.1.1., на открытый Банком срочный депозитный счет **№ 206_____**, **МФО 00083** для размещения их в качестве срочного Депозита на условиях, предусмотренных настоящим договором.
2.1.2. Depozit muddatidan oldin to‘liq yoki qisman qaytarib berishni talab qilishdan oldin, Bankni depozit qaytariladigan sanadan kamida bir oy oldin yozma ravishda ogohlantiradi.	2.1.2. При досрочном востребовании полной суммы или частичной суммы Депозита, письменно предупреждать Банк не менее чем за один месяц до даты фактического возврата.
2.1.3. Depozit hisob raqamini ochish uchun so‘ralgan barcha kerakli xujjatlarni Bankga taqdim etadi.	2.1.3. Предоставить Банку все необходимые документы, запрошенные на открытие депозитного счёта.
2.1.4. O‘zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me’yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda Bankning so‘roviga asosan lozim darajada tekshirish va operatsiyaga doir tegishli hujjatlarni taqdim qilish.	2.1.4. На основании запроса Банка Предоставить необходимые документы, связанные с проводимой операцией, в случаях, предусмотренных нормативными актами Республики Узбекистан в области противодействия отмыванию денег, финансированию терроризма и финансированию распространения оружия массового уничтожения.
2.2. Bankning majburiyatlari:	**2.2. Банк обязуется:**
2.2.1. Depozitor nomiga muddatli depozit hisobvarag‘ini ochadi.	2.2.1. Открыть депозитный счёт на имя Депозитора.
2.2.2. Depozitor tomonidan joylashtirilgan depozitni butligini ta’minlaydi.	2.2.2. Обеспечить сохранность Депозита и выплату процентов по нему в полном соответствии с условиями настоящего Договора.
2.2.3. Depozitdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan foizlarni hisoblash O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 764-moddasi va «Tijorat banklarda foiz hisoblash tartibi to‘g‘risida»gi (A.V. 3460-son 29.09.2023 y.) Nizomga asosan amalga oshiradi.	2.2.3. Уплачивать Депозитору проценты установленного настоящим Договором исходя из срока фактического использования Депозита, согласно 764-статьи Гражданского Кодекса Республики Узбекистан и Положению о начислении процентов в коммерческих банках (МЮ-№3460, 29.09.2023 г.).
2.2.4. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati	

davomida Depozitorga Depozit bo‘yicha foizlarni har oyda, oyning oxirgi kunini hisobga olgan holda hisoblab boradi va joriy oy uchun hisoblangan foizlarni ushbu oyning oxirgi ish kunida va oxirgi foiz to‘lovi depozitni qaytarish sanasida to‘lab beradi. Agar foizlarni to‘lash kuni dam olish kuniga to‘g‘ri kelsa, to‘lov sanasidan eng oldingi bank ish kunida to‘lab beriladi.	2.2.4. В период действия настоящего Договора начислять Депозитору проценты по Депозиту ежемесячно, на последнюю дату месяца включительно, и выплачивать их в последний день данного месяца и в дату возврата суммы депозита. Если дата платежа приходится на нерабочий день, то проценты выплачиваются самый ближайший банковский день данного месяца.
2.2.5. Mazkur Shartnomaning 1.1-bandida keltirilgan muddat tugagach depozit summasi va hisoblangan foizlarini Depozitorning hisobvarag‘iga o‘tkazadi. Agar depozit summasi to‘lovini o‘tkazish kuni dam olish kunlariga to‘g‘ri kelsa keyingi bank ish kunidan kechiktirmagan xolda (foizlar ushbu dam olish kunlari uchun hisoblanib depozit summasi bilan birga) o‘tkazib beradi.	2.2.5. В последний день, установленный в пункте 1.1, настоящего Договора, произвести возврат суммы Депозита и начисленных процентов на расчетный счет Депозитора. Если дата возврата суммы основного депозита приходится на нерабочий день, то возврат должен быть произведен на следующий банковский день (с доначислением процентов за нерабочие дни с выплатой вместе с суммой депозита).
2.2.6. Depozit mablag‘ini Depozitor talabi bilan muddatidan oldin qaytarish kuyidagicha etib belgilanadi. Agar Bankka depozit summasi kelib tushgan sanadan 30 kun ichida qaytarilsa – foizlar to‘lanmaydi; Bankka depozit summasi kelib tushgan sanadan 31-kundan keyingi qaytarish holatida quyidagi foiz stavkalari amal qiladi: 31–90 kun – yillik _____% (_____); 91–180 kun – yillik _____% (_____); 181–365 kun – yillik ____% (_____); 366-kundan kuprok – yillik _____% (_____). Depozit summasi Bank hisobvarag‘iga kelib tushgan kundan boshlab 366-kalendar kunidan shartnomaning 1.1-bandining D kichik bandida ko‘rsatilgan sanagacha bo‘lgan muddat ichida Depozitor tomonidan qaytarib berish so‘rovi berilganda, foizlar Bank tomonidan qayta hisoblanmaydi va Shartnomaning 1.1-bandining E kichik bandiga asosan to‘lanadi. Depozitorni 2.1.2 bandida ko‘rsatilgan shartlarga muvofik berilgan yozma xatga asosan Bank ushbu xat sanasidan bir oy muddatdan chiqib ketmagan xolda depozitni qaytarib beradi.	2.2.6. Досрочный возврат суммы вклада по требованию Депозитора определяется следующим образом. При возврате с момента поступления суммы депозита в Банк в течение 30 дней - проценты не выплачиваются; При возврате с момента поступления суммы депозита в Банк после 31-дня применяются следующие процентные ставки: 31-90 дней - ____% (_____) годовых; 91-180 дней - _____ % (_____) годовых; 181-365 дней - ____ % (_____) годовых. 366-болле дней - _____ % (_____) годовых. Если запрос на возврат депозита поступит от Депозитора с момента зачисления суммы депозита на банковский счёт в период с 366-го календарного дня и до даты, указанной в подпункте D пункта 1.1 Договора, проценты Банком не перерасчитываются и выплачиваются на основании, подпункта E пункта 1.1 Договора. Возврат вклада осуществляется Банком по письменному заявлению Депозитора в течение одного месяца с даты данного письмав соответствии с условиями, указанными в п. 2.1.2.
2.2.7. Bank tomonidan Depozitorning Depozit bo‘yicha amaliyotlar to‘xtatib qo‘yilganda, bank amaliyot to‘xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Depozitorga uning hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish to‘xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan yozma xabarnoma (ma’lumotnoma) yuboradi.	2.2.7. При приостановлении Банком операций по вкладу Вкладчика банк направляет Вкладчику письменное уведомление (справку) о приостановлении обслуживания его счета и причинах этого не позднее следующего рабочего дня со дня приостановления операций.
2.2.8. Agar Bank depozitni muddati tugagunga qadar	

qaytarish niyatida bo‘lsa, u Depozitorning yozma roziligini olishi va depozitni qaytarish sanasini oldindan kelishib olishi shart.	2.2.8. Если Банк намерен вернуть депозит до истечения срока, он обязан получить письменное согласие Депозитора и предварительно согласовать дату возврата депозита.
3. Depozit mablag‘larini kafolatlash 3.1. «Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, yagona mijoz uchun kafolatlangan miqdor 200 000 000,00 so‘mdan oshmaydi. 3.2. Depozitlarni kafolatlashga oid normalari «Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablaridan kelib chiqib belgilanadi.	**3. Гарантирования депозита** 3.1. Согласно Закону “О гарантиях зашиты вкладов в банках» Гарантируемая сумма на одного уникалнога клиента составляет не более 200 000 000,00 сум. 3.2. Нормативы гарантирования вкладов определяются исходя из требований Закона Республики Узбекистан «О гарантиях защиты вкладов в банках».
4. TOMONLARNING HUQUQLARI 4.1. **Depozitor quyidagi huquqlarga ega:** 4.1.1. Depozitor depozitni to‘liq yoki qisman shartnomada ko‘rsatilgan muddatga kadar muddatidan oldin qaytarib olish. Bunda Bank Depozitorga Depozitni amalda joylashtirilgan muddat uchun foizlarni mazkur Shartnomaning 2.2.6. bandida keltirilgan shartlarga asosan to‘lab beradi. 4.1.2. Bankning tashabbusi bilan depozit to‘liq yoki qisman muddatidan oldin qaytarilgan taqdirda muddatidan avval qaytarilgan summaga yillik _____ % (_____) miqdorida depozitdan haqiqatdan foydalanilgan kunlar uchun foizlarni olish; 4.1.3. Bank tomonidan Depozitorning depozit hisobvarag‘i bo‘yicha amaliyot to‘xtatilganida va Depozitorning topshirig‘isiz hisobidan mablag‘ chiqarilganida xabarnoma olish; 4.1.4. Bank tomonidan depozit bo‘yicha to‘langan foizlar ortiqcha ekanligi aniqlangan taqdirda, ortiqcha to‘langan foizlar summasini Bankka qaytarish.	**4. ПРАВА СТОРОН** 4.1. **Депозитор имеет право:** 4.1.1. Досрочно до указанного периода в Договоре востребовать полностью или часть размещенного Депозита. В этом случае, Банк выплачивает Депозитору проценты за фактический период размещения Депозита по ставке указанной в п. 2.2.6. настоящего договора; 4.1.2. При досрочном погашении депозита по инициативе Банка, Депозитор имеет право получить процентные доходы по ставке ____% (_____) годовых исходя из срока фактического использования Депозита; 4.1.3. При приостановке Банком операций по депозитному счету, а так же перечислении средств со счёта без поручения Депозитора, получать письменно уведомление; 4.1.4. В случае выявления излишней выплаты Банком процентов по Депозиту, возвратить Банку сумму излишне выплаченных процентов.
4.2. Bank quyidagi huquqlarga ega: 4.2.1. Mazkur shartnomani shartlarini o‘zgaritirish bo‘yicha taklif bilan Depozitorga murojaat qilish. Mazkur shartnoma shartlariga kiritilgan o‘zgartirishlar Depozitorning roziligi va shartnomaga qo‘shimcha kelishuv bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi. 4.2.2. O‘zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga,	**4.2. Банк имеет право:** 4.2.1. Обратится к Депозитору с предложением об изменении условий Настоящего договора. Изменение условий по настоящему договору производится при наличии согласия Депозитора и дополнительного соглашения к договору. 4.2.2. Осуществлять надлежащую проверку клиента, истребовать необходимые документы, связанные с проводимой операцией,

terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me’yoriy hujjatlarga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida depozitordan lozim darajada tekshirish va operatsiyaga doir tegishli hujjatlarni talab qilib olish. 4.2.3. Mazkur shartnomaning 4.2.2-bandida nazarda tutilgan hollarda mijoz tomonidan Bankka zarur bo‘lgan ma’lumotlarni/hujjatlarni taqdim etmaslik, bajarmaslik, bo‘yin tovlash kabi holatlar yuz berganda bank moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishni rad etishga, voz kechishga va bekor qilishga haqlidir.	приостанавливать/прекращать операции, отказать в совершении операции, проверять клиента, в случаях указанных в нормативно-правовых актах Республики Узбекистан, связанных с противодействием отмыванию денег, финансированию терроризма и финансированию распространения оружия массового уничтожения. 4.2.3. В случаях уклонения от предъявления и не предоставления документов/сведений, запрошенных Банком на основании пункта 4.2.2. настоящего договора, банк имеет право отказать в совершении операции приостанавливать/прекращать финансовые операции клиента.
5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI 5.1. Mazkur shartnomada bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi. 5.2. Mazkur shartnomada belgilangan to‘lovlarni o‘z muddatida amalga oshirilmagan taqdirda, to‘lovni kechiktirgan tomon to‘lovlar kechiktirilgan har bir kun uchun asosiy qarz summasining 0,04% miqdorida penya to‘laydi, lekin to‘lanishi lozim bo‘lgan summaning 5% foizidan oshmasligi lozim. 5.3. Penyalarni to‘lash tomonlarni mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.	**5. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ СТОРОН** 5.1. В случае неисполнения или ненадлежащего исполнения своих обязательств по настоящему договору, Стороны несут ответственность в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан. 5.2. В случае просрочки проведения платежей по настоящему договору, сторона, допустившая просрочку, выплачивает пеню в размере 0,04% от суммы основного долга за каждый день просрочки, но не более 5 % от суммы, подлежащей оплате. 5.3. Независимо от уплаты пени Стороны не освобождается от выполнения обязательств по настоящему Договору.
6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, SHARTNOMANI O‘ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI 6.1. Shartnoma tomonlar o‘rtasida imzolangan va Bankdagi depozit hisob raqamiga mablag‘lar kelib tushgan kundan boshlab kuchga kiradi hamda Tomonlar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajargunga qadar amalda bo‘ladi. 6.2. Tomonlarning ikki tomonlama roziligiga asosan Shartnomaga qo‘shimcha kelishuv tuzilib, unda kelishilgan shartlar asosida depozit muddati uzaytirilishi mumkin. Bunda manfaatdor tomon ikkinchi tomonga depozit amal qilish muddati tugashidan kamida 3 kun oldin taklif bilan murojaat qiladi. 6.3. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o‘zgarish va qo‘shimchalar yozma ravishda yozilib, ikkala tomonning vakolatli shaxslari tomonidan imzolanib,	**6. СРОК ДЕЙСТВИЯ ДОГОВОРА, ПОРЯДОК ИЗМЕНЕНИЯ И РАСТОРЖЕНИЯ ДОГОВОРА** 6.1. Договор вступает в силу после его подписания Сторонами и поступления средств на депозитный счет Банка и действует до полного исполнения Сторонами своих обязательств. 6.2. При обоюдном письменном согласии сторон, срок действия договора может быть продлен на условиях, оговоренных в дополнительном соглашении. При этом заинтересованная сторона обращается с предложением к другой стороне не менее чем за 3 дня до окончания срока депозита. 6.3. Все изменения и дополнения к настоящему Договору действительны лишь в том случае, если они совершены в письменной форме с подписями

muhrlari bilan tasdiqlangan taqdirdagina xaqiqiy xisoblaniladi. 6.4. Bir tomon ikkinchi tomonni 30 (O‘ttiz) bank ish kunidan kam bo‘lmagan muddatdan avval ogohlantirgan holda, uning yozma roziligiga asosan Mazkur shartnomani bekor qilishi mumkin. 6.5. Bank depozitni depozitga kuyuvchini 10 kun oldin yozma ogoxlantirgan xolda bir tomonlama bekor qilib qaytarib yuborish xuquqiga ega bunda depozit turgan kunlariga foizlari shartnomani 1.1. bandini Ye kichik bandiga asosan to‘lab beriladi. 6.5. Mazkur shartnomaning 4.2.2 bandida nazarda tutilgan hollarda depozitor tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligi doirasi Bankka zarur bo‘lgan ma’lumotlarni/hujjatlarni taqdim etilmaganda, Bank Depozitorni mavjud aloqa kanallari orqali ogohlantirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilishga xaqlidir.	уполномоченных лиц сторон, заверенных печатью. 6.4. Любой из сторон по письменному согласованию другой стороны может расторгнуть настоящий договор, предупредив его об этом не менее чем за 30 (Тридцать) банковских дней. 6.5 Банк имеет право в одностороннем порядке расторгнуть депозит и вернуть денежные средства, письменно уведомив об этом вкладчика за 10 дней, при этом проценты за фактические дни нахождения депозита выплачиваются в соответствии с подпунктом «Е» пункта 1.1 настоящего договора. В случаях уклонения от предъявления и не предоставления документов/сведений, запрошенных Банком в рамках Законодательства Республики Узбекистан, на основании пункта 4.2.2. настоящего договора, банк вправе в одностороннем порядке расторгнуть договор, уведомив Депозитора по доступным каналам связи.
7. MAXFIYLIK 7.1. Mazkur shartnomani tuzish va bajarish vaqtida tomonlar bir-biridan olgan barcha ma’lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi. 7.2. Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog‘ida boshqa tomonning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma’lumotlarni axborot egasining yozma roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi. Mazkur talab shartnomaning amal qilish muddatiga hamda shartnoma muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil mobaynida amal qiladi. 7.3. Ushbu talablarni buzgan tomon buning oqibatida ikkinchi tomonga yetkazilgan barcha zararni to‘liq xajmda qoplaydi.	**7. КОНФИДЕНЦИАЛЬНОСТЬ** 7.1. Все информации полученные сторонами друг от друга при составлении и исполнении настоящего Договора признаются конфиденциальными. 7.2. Стороны обязуются не разглашать конфиденциальную информацию являющуюся коммерческой тайной передаваемой в процессе заключения и исполнения обязательств по договору без письменного согласия владельца информации. Настоящее обязательство действует в течении срока действия договора и в течении 3 лет после окончания срока действия договора. 7.3.Сторона нарушившая эти обязательства полностью покрывает другой стороне все причиненные убытки вследствии этого нарушения.
8. FORS-MAJOR HOLATLARI 8.1. Tomonlar yengib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari yuzaga kelganligi ya’ni tomonlarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog‘liq bo‘lmagan tabiat hodisalari, ijtimoiy-iqtisodiy holatlar sababli shartnoma shartlarini to‘liq yoki qisman bajara olmagan taqdirda javobgarlikdan ozod kilinadilar. 8.2. Yengib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major)	**8. ФОРС-МАЖОРНЫЕ ОБСТОЯТЕЛЬСТВА** 8.1. Стороны освобождаются от ответственности за частичное или полное неисполнение обязательств по договору в случае если это явилось следствием возникновения обстоятельств непреодолимой силы (форс-мажор), то есть природные события, социально-экономические ситуации не зависящих от воли, желания и деятельности сторон.

holatlari — bu tomonlarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog‘liq bo‘lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko‘chki, bo‘ron, qurg‘oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko‘zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlardir. 8.3. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda tomonlar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo‘yicha o‘zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo‘ladilar.	8.2. Обстоятельства непреодолимой силы (форс-мажор) – это чрезвычайные, непредотвратимые и неожиданные обстоятельства, ограничивающие Сторон от исполнения взятых на себя обязательств не зависящиеся от воли, желания и деятельности сторон природные события (землетрясения, наводнения, ураган, засуха и другие), социально-экономические ситуации (война, военные действия, ограничения импорта и экспорта в интересах государства и другие). 8.3. В случае возникновения форс-мажорных ситуации, Стороны освобождаются от исполнения обязательств по договору до устранения таких обстоятельств.
9. KORRUPTSIYAGA QARSHI QO‘SHIMCHA SHARTLAR 9.1. Tomonlar shartnomani tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so‘ng, shartnoma bilan bog‘liq korruptsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar. 9.2. Tomonlar shartnomadagi korruptsiyaga qarshi qo‘shimcha shartlarda belgilangan korruptsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo‘yicha hamkorlikni ta’minlaydilar. 9.3. Har bir tomon shartnoma tuzilgan paytda bevosita o‘zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog‘liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qimmatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qimmatliklar olinishiga yo‘l qo‘yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va’da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Tomonlar ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (hamkorlarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko‘radi.	**9. ДОПОЛНИТЕЛЬНЫЕ АНТИКОРРУПЦИОННЫЕ УСЛОВИЯ** 9.1. Стороны соглашаются не совершать коррупционных действий, связанных с настоящим договором, при его заключении, в период его действия, а также после истечения срока его действия. 9.2. Стороны признают меры по предотвращению коррупции, предусмотренные дополнительными антикоррупционными условиями настоящего договора, и обеспечивают сотрудничество в части соблюдения этих мер. 9.3. Каждая сторона гарантирует, что при заключении договора ни ею непосредственно, ни её исполнительными органами, должностными лицами и сотрудниками не передавались денежные средства или материальные ценности, а также не допускалось получение неофициальных денежных средств или иных материальных ценностей в обмен на заключение договора; такие предложения не делались и не обещались. Также гарантируется, что не были получены никакие материальные или иные преимущества, льготы (и не создавалось впечатление о возможном совершении подобных действий в будущем). Стороны принимают разумные меры, чтобы лица (партнёры), привлечённые ими в рамках исполнения договора, не совершали указанные выше действия.
10. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI VA BOSHQA SHARTLAR 10.1. Tomonlarning pochta manzillari, mulkchilik shakli va rekvizitlari o‘zgargan taqdirda biri birlarini ushbu o‘zgartirishlar kirilgan kundan boshlab 10 (o‘n) kun ichida ta’sis xujjatlari va boshqa rasmiy	**10. ПОРЯДОК РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ И ДРУГИЕ УСЛОВИЯ** 10.1. Стороны обязуются письменно уведомлять друг друга об изменении своих почтовых адресов, формы собственности и реквизитов в течение 10-и календарных дней с момента внесения этих

ma’lumotlarni taqdim qilgan xolda ogohlantirish majburiyatini oladilar. Aks xolda eski rekvizitlar bo‘yicha pul mablag‘larni o‘tkazib yuborgan yoki xabarnomalar yuborgan tomon Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajargan hisoblanadi. 10.2. Tomonlar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo‘li bilan hal etadilar. Agar tomonlar kelishmovchilik vanizolarni tinch yo‘l bilan hal etishga erisholmagan taqdirda, mazkur kelishmovchilik va nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Toshkent shahar tumanlararo iqtisodiy sudi orqali hal etiladi. 10.3. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada o‘zbek va rus tillarida tuzilib, tomonlarda bir nusxadan saqlanadi va **o‘zbek tilidagi kismi ustunlikga ega**.	изменений в учредительные или иные официальные документы. В противном случае Сторона, осуществившая перевод средств или направившая сообщение по прежним реквизитам, считается надлежаще исполнившей свои обязательства. 10.2. Стороны урегулируют разногласия и спорные вопросы, возникающие в связи с исполнением Настоящего договора путем переговоров. В случае невозможности взаимной договоренности, данные споры и разногласия подлежат рассмотрению в Межраённом экономическом суде г.Ташкентав порядке установленным законодательством Республики Узбекистан. 10.3. Экземпляры договора имеют одинаковую юридическую силу, составлены в двух экземплярах на узбекском и русском языках, по одному экземпляру хранения сторон, и **преимущественную силу имеет часть на узбекском языке**.

11. TOMONLARNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI	**11. ЮРИДИЧЕСКИЕ АДРЕСА И РЕКВИЗИТЫ СТОРОН**
«BANK»	**«DEPOZITOR»**
«Hamkorbank» ATB Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Andijon shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 85 **Hisobvaraq: 206_____** MFO 00083, STIR 200242936, OKONX 96120 **Boshqaruv Raisi** **_____ _____**	**«_____» _____** Manzil: _____ **Hisobvaraq:_____** MFO _____, STIR _____ _____ **_____** **_____ _____**